

Muydinova Nigora Usmonjonovna, Farg'ona davlat universiteti mustaqil
izlanuvchi

e-mail: mujdinovanigora@gmail.com orcid.org/0009-0004-0194-0675



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDAGI ATOQLI OTLARNING XUSUSIYATLARI

<https://zenodo.org/records/19841439>

Annotatsiya: Ushbu maqolada atoqli otlar ishtirokidagi frazeologik birliklarni tuzilishi nafaqat tashqi yasalishi bilan balki madaniy konnotatsiyasi, emotsional - assotsiativ ta'siriga bog'likligini ko'rsatadi. Shunigdek ingliz va o'zbek tillaridagi atoqli otlarni shakli boyicha farqi va grammatik farqlari qiyoslanib berilgan.

Kalit so'z va iboralar: frazeologik birliklar, konnotatsiya, propriyalar, o'zak, komponent, yasama ot, qoshma ot, semantik tuzilish.

FEATURES OF PROPER NOUNS AS A PART OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation: This article shows that the structure of phraseological units involving proper nouns depends not only on their external structure, but also on their cultural connotation, emotional and associative impact. In addition, the form and grammatical differences of English and Uzbek proper nouns are compared.

Key words and phrases: phraseological units, connotation, proper nouns, root of the word, component, compound noun, semantic structure.

ОСОБЕННОСТИ ИМЕН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ СОБСТВЕННЫХ В СОСТАВЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье показано, что структура фразеологических единиц, включающих имена собственные, зависит не только от их внешней структуры, но и от коннотации выражающей культуру, эмоционального и ассоциативного воздействия. Кроме того, проводится сравнение формальных и грамматических различий имен существительных собственных в английском и узбекском языках.

Ключевые слова и выражения: фразеологические единицы, коннотация, имена собственные, основа, компонент, составное имя существительное, семантическая структура

Kirish.

Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida frazeologiyaning semantik jihatlarini chuqur o‘rganish, ayniqsa atoqli otlar ishtirokidagi frazeologik birliklarning ichki ma‘no qatlamini tahlil qilish, bugungi global tilshunoslik uchun dolzarb masalalardan biridir. Bu turdagi birliklar orqali xalqning tarixiy-madaniy xotirasi, ijtimoiy ideal va qadriyatlar tizimi ifodalanadi, ularning semantikasi esa bir qator omillar **bilan ham** shakllanadi.

Atoqli otlar ishtirokidagi frazeologik birliklar semantikasi ularning faqat tashqi tuzilmasi bilan emas, balki **ichki obrazli yuki, madaniy konnotatsiyasi, emotsional-assotsiativ ta’siri, shuningdek, xalq tafakkuridagi tarixiy, afsonaviy va diniy asoslar bilan** bog‘liqligini ko‘rsatadi. Aynan shu jihatlar bu mavzuni ilmiy nuqtayi nazardan o‘ta muhim va chuqur o‘rganishga loyiq qiladi.

Atoqli otlar (proprialar) tilshunoslikda nominatsiya vositasi sifatida alohida semantik, grammatik va stilistik o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan leksik birliklar sifatida qaraladi. Ular shaxslar, joylar, tarixiy voqealar, tashkilotlar, hayvonlar va boshqa noyob obyektlarni atash uchun xizmat qiladi. Atoqli otlar ko‘pincha individual ob’ektga tegishli bo‘lib, umumiy otlardan farqli ravishda “tur” emas, balki “yagona birlik” tushunchasini bildiradi.⁵ Atoqli otlar nomlash funksiyasidan tashqari boshqa lingvistik funksiyalarga ham ega. Ular semantik jihatdan emotsional, pragmatik, stilistik va madaniy yuklamalar bilan boyitilgan bo‘lib, kommunikatsiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Bobur” degan atoqli ot faqat shaxs nomi emas, balki tarixiy davr, adabiyot, davlat va urf-odatlar timsoli sifatida semiosferada qatnashadi⁶.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Hozirgi davrgacha frazeologik birliklar tarkibidagi atoqli otlarning xususiyatlari G'. M. Xoshimov (“The theory of Modern English Grammar” 2013), S. Xaymovich, B.I. Rogovskaya (“Theoretical Grammar of the English Language” 1987), G. Crumey (“A Grammar of the English Language” 1960), O. Jespersen (“Essentials of English Grammar” 1933), N.A. Kobrina, E.A. Korneyeva, M.I. Ossovskaya, K.A. Guzeyeva (“An English Grammar” 1999), M.Y. Blox (“Theoretical Grammar of the English Language” 1983), B.A. Plish (“Строй современного английского языка” 1971), V.V. Gurevich (“Теоретическая грамматика английского языка. Сравнительная типология английского и русского языка” 2003), R. Quirk, S. Greenbaum, G. Leech, J. Svartvik (“A University Grammar of English” 1982) I.P. Ivanova, V.V. Burlakova, G.G. Pochepsov (“Теоретическая грамматика современного английского языка” 1981), D. Biber, S. Conrad, G. Leech (“Longman student Grammar of Spoken and Written English” 2002) kabi ingliz tilshunoslari va N. Turniyozov, A. Rahimov (“O‘zbek tili” 2006), A. Nurmonov (“Hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” 2007), S. Rahimov, B. Umurqulov (“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 2003) D. Matyoqubova (“Morfologiya” 2008) kabi o‘zbek tilshunos olimlarining ilmiy va amaliy ishlarida o‘z aksini topgan. Yuqorida sanab o‘tgan ingliz va o‘zbek tilshunoslarining ishlarida

⁵ Podolskaya N.V. Slovar lingvisticheskix terminov. – M.: Nauka, 1981

⁶ Rakhmatullaev Sh. O‘zbek tilida atoqli otlar. – T.: Fan, 1973

ot so'z turkumining ta'rifi, gapda bajarib keladigan vazifasi, uning so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos jihatlari tahlili kabi masalalar yoritilgan.

Natija va muhokama

Tuzilishiga ko'ra atoqli otlar sodda, yasama, qo'shma bo'lishi mumkin:

- Sodda atoqli otlar- bir o'zak morfemadan iborat bo'lib , boshqa ma'noviy guruhlarga bo'linmaydi.
- Yasama atoqli otlar – bir o'zak morfema va so'z yasovchi affiksdan iborat bo'ladi.
- Qo'shma atoqli ot- ikki mustaqil o'zak morfemaning o'z ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda ,yangi ma'noli otlar yasash usuli.

B.Madaliyevning tasnifiga ko'ra o'zbek tilida atoqli otlarning shakli:

- 1.Sodda ot – faqat bir mustaqil morfemadan iborat: Kamol, Quyosh
2. Yasama ot – morfema+affiks qolipida keladi: Bo'tqachi, Bordonchi,Otaliq
- 3.Qo'shma ot- quyidagi qoliplarda yasaladi:

OT+OT: ,Baxmaltepa,Galaosiyo,Gulchehra,Kaptarxona

OT+OT+EGALIK QO'SHIMCHASI: Qo'rg'ontagi, Buloqboshi,Tarnovboshi

IZOFALI BIRIKMA: Qal'amirishkor, Bog'ishamol

IZOHLOVCHI+IZOHLANMISH: Amudaryo, Oyimqishloq, Hurmatoy

SIFAT+OT: Oqchagal,Qoratuxum,Qo'shqo'rg'on

SON+OT : Beshariq, Mingtepa, Uchariq

FE'L+FE'L: Tarqabchiqay, Borsakelmas,

OT+FE'L: Soykeldi, Xonkeldi

OT+SIFATDOSH: Yo'ltushkan,Paxtaqaynar

Ingliz olimi J.Anderson atoqli otlarning shakl jihatdan tuzilishini tahlil etar ekan, quyidagi klassifikatsiyani taklif etadi:

S OF N OML AR	SODDA	Sinxronik noaniq nomlar	John,Sarah,Bill
		Turdosh otga o'xshash nomlar	Prudence,Provi nce
		Boshqa atoqli otlar asosida yasalgan otlar	Lincoln
	YASAMA	Boshqa ot turlaridan yasalgan	Germany
		Nomni o'z ichiga olgan	Queensland
		Noaniq shaklni olgan	Wigton
		Aniq artikl bilan kelgan	The Trent,The Scillies,The Channel
		So'z birikmasi asosida yasalgan	The Old Vicarage, Long

	QO'SHMA		Island, Hen and Chicken Island
		Gap qurilishiga asoslangan	If-Christ-had-not-died-for-you-you-had-been-damned-barebones

Qo'shma ot tarkibidagi otlarning munosabatiga ko'ra quyidagi guruhlash kelib chiqadi:

- Birinchi komponenti belgi ma'nosini bildiradi: Oqtepa, Qoratosh, Qizilo'rda, Ko'kterak, Chuqurqishloq, Yangiyo'l
- Subyekt bilan predikat munosabatini anglatadi: Qumbosdi, Tuyatortar, Otchopar
- Kishi nomlarini bildiradi: Asrorbobo, Tursunali, Yigitali
- Yulduz nomlarini bildiradi: Yettiog'ayni, Oltingoziq, Tengtaroz
- O'rin-joy ma'nosini bildiradi: Mehnatobod, Paxtaobod

Ingliz tili izohli lug'atlari materialida q'oshma otlarni q'uyudagi tashkil etuvchi element turi va ularning soni asosida yaratilganligini aytishimiz mumkin:

1. Monomorfemik atoqli ot
2. Polimorfemik atoqli ot

Monomorfemik atoqli ot- faqat o'zak morfemadan iborat bo'ladi:

London, Britain, America

Polimorfemik atoqli ot – birdan ortiq mustaqil ma'noli morfemadan tashkil topadi va morfemalarning soniga ko'ra guruhlanadi:

•Bimorfemik atoqli ot:

- 1.O'zak+o'zak: Newport, Maryland
- 2.O'zak+ Affiks: Borders, Berkshire

•Trimorfemik atoqli ot:

- 1.O'zak+o'zak+o'zak: Jacksonville, Sunshine Coast
- 2.O'zak+infiks+o'zak: Bakersfield, Portsmouth, Huntsville
- 3.O'zak+o'zak+postfiks: Fort Collins, Grand Rapids, Hot Springs

Bundan tashqari, atoqli otlarning quyidagi turlarini ham farqladik:

Frazo-lexmik atoqli ot- so'z birikmasi shaklida keladi, ammo birikma tarkibidagi elementlar tobe- hokimlik munosabatini namoyish etmay, bir so'zga teng bo'lib qoladi, ya'ni frazologik birlik shakli saqlanadi, ammo mohiyati o'z kuchini yo'qotadi. Bu shaklning quyidagi turlarini farqladik:

1. O'zak+ predlog+ o'zak:
Stroke-on-Tent, Southend-on Sea, Kingston upon Hill
2. O'zak+ bo'g'lovchi+ o'zak:
Dumfries and Galloway, Ross and Gromarty
3. Qaratqichli birikma bilan ifodalanishi:
Hawke's Bay, Lee's Summit, Hands on Children's
4. Gap qolipi bilan ifodalanishi :

If-Christ-had-not-died-for-you-you-had been-
damned-barebones

Bimorfemik atoqli otlar uni tashkil etuvchi so'zlarga ko'ra ham tasniflanishi mumkin:

SIFAT+OT:Blackpool, Holyhead, Newport, Green Bay, Little Rock, Whitehorse, Yellowknife, Newcastle, Rapid City, Cheapside, Middlesex, Highland

OT+OT: Waterford, Maryland, Bridgeport, Jackson, Thunderbay, Gulfport

RAVISH+OT:Hereford

OT+FE'L:Lisburn, Warwick, Horsefly, Townsend

FE'L+OT:Flymouth, Swansea, Drinkwater, Tickleman, Loveland

GERUND+OT:Flying shot Lake, Bucking horse River, Huntingdonshire

SIFAT+FE'L:Blackburn.

Atoqli otlarning shakl tahlili shundan iborat.

Atoqli otlarning semantikasi juda ham xilama- xil va turli ilmiy nashrlarda ular turlicha tasnif etilgan. Misol uchun:

D.Biber, S.Conrad atoqli otlarning quyidagi semantik turlarini sanab o'tadi:

- 1.Kishi nomlari:Anna, Tom, Singh
- 2.Joy nomlari:Australia, Karachi, Africa
- 3.Tashkilot nomlari: Congress, Mitsubisi
- 4.Vaqt nomlari: Saturday, July, Christmas

G.Leech, J.Svartik atoqli otlarning quyidagi semantik guruhlarini farqlaydi:

- 1.Kishi nomlari
- 2.Taqvimiy nomlar
- 3.Geografik nomlar
- 4.Jamoat joy nomlari
- 5.Nashriyot nomlari

Grammatik nuqtayi nazardan, atoqli otlar quyidagi belgilar bilan farqlanadi:

Ko'plikda kamdan-kam ishlatiladi (metaforik holatlarda: *Oskarlar, Temurlar*);

Belgilovchi so'zlar bilan birikadi (Sir William, Prezident Karimov);

Belgilovchi artikllar bilan qo'llaniladi (the Thames, the Vatican);

Moslashuvchanlik darajasi past (odatda sifatdoshlar kam qo'llanadi).

Sintaktik jihatdan, atoqli otlar odatda ega yoki to'ldiruvchi vazifasida keladi, lekin stilistik uslubda ular hol yoki kesim sifatida ham ishlatilishi mumkin: *U Boburday jasur edi, She acted like Cleopatra*³.

Atoqli otlar milliy madaniyatda yirik semantik blok sifatida namoyon bo'ladi. Ular xalq xotirasi, tarixiy voqealar, adabiy obrazlar va dinga oid belgilarni kodlaydi. Masalan:

- *Cleopatra* — go'zallik va makr;
- *Stalin* — qat'iylik, ammo repressiya;
- *Temur* — adolat va harbiy iqtidor;
- *Zulfiyaxonim* — fidoyilik, ayol obrazining etaloni.

O'zbek tilshunosligida ham propriyalar orqali xalqning ma'naviy-ruhiy olami aks ettiriladi. Shuningdek, ular lingvokulturologik kod sifatida badiiy matnlar, folklor va ommaviy diskursda faol ishlatiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, atoqli otlar shakl jihatdan aniqlikga ega bo'lsa, mazmun jihatdan esa xilma-xildir. Atoqli otlarning turlari boshqa bir ma'no shaklini yasash davomida bir necha bor o'zgarish jarayonlari ham kuzatiladi. Birgina insonga xos bo'lgan atoqli otning ham joy nomi, ham jonsiz predmet nomini anglatib kelishi mumkin.

Atoqli otlar til tizimida o'zining nominatsion, semantik, stilistik va madaniy vazifalari bilan boshqa so'z turkumlaridan tubdan farq qiladi. Ular faqatgina shaxs yoki joy nomi emas, balki madaniy kod, tarixiy signal, emotsional va assotsiativ birlik hamdir. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida ularning ishtiroki iboraviy ma'noga yangi qirralar, ramziylik va intertekstual mazmun kiritadi. Shu sababli, atoqli otlar alohida tilshunoslik kategoriyasi sifatida frazeologiya bilan uzviy aloqada o'rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirboyev S., Azimov I. O'zbek tili tarixiy grammatikasi, T., 2001, 65 bet;
2. Anderson J.M. The Grammar of Names, Oxford University Press, 2007, 388 p;
3. Blokh M.Y. Theoretical Grammar of the English Language, M., 1983, 383 p;
4. Madliyev B. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma so'zlar, T., Fan, 1966, 180 bet;
5. Nizomiddinova D. Farg'ona antroponimlarini o'rganishga doir, O'zbek tili va adabiyoti, T., 2011, 81-84 bet;
6. Podolskaya N.V. Slovar lingvisticheskix terminov. – M.: Nauka, 1981
7. Rakhmatullaev Sh. O'zbek tilida atoqli otlar. – T.: Fan, 1973

Qiyomidinova Nilufar Qaxramon qizi, O'zDJTU Ingliz filologiyasi Ingliz tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi nqiyomidinova@gmail.com
ORCID ID:0009-0004-7137-0540 90 012 40 97



IJTIMOYIY TARMOQLARDA KOMMENTARIYA NUTQINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

<https://zenodo.org/records/19841535>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi kommentariya nutqining psixolingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga ilmiy tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitida Instagram va Telegram kabi platformalarda foydalanuvchilar tomonidan yoziladigan izohlar spetsifik lingvistik va psixologik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Tadqiqotda kommentariya nutqining kognitiv jihatlari, emotsional-ekspressiv vositalar va sotsial-psixologik omillar o'zaro aloqadorlikda o'rganilgan. Maqolada Instagram va Telegram tarmoqlaridan olingan empirik misollar asosida kommentariyalarning leksik-